

TIJORAT BANKLARIDA MOLİYAVIY HISOBOTLAR TAHLILINI TAKOMILLSHTIRISH (ATB KAPITALBANK MISOLIDA)

Abdusamatov Bekzod Amirqul o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda moliyaviy hisobotlarning tahlilini takomillashtirish masalalari o'rganilib, ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqotda tijorat banklari talablari asosida hisobot yuritish, aktivlar va majburiyatlarni baholash, shaffoflikni ta'minlash hamda hisobni raqamlashtirish mexanizmlari zamonaviy moliyaviy tahlil usullari asosida tahlil qilingan. «Kapitalbank» ATB misolida markaziy apparat va filial darajasida xalqaro standartlarga muvofiq hisobot yuritishning samaradorligi o'rganilib, ularning moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar aniqlangan.

Kalit so'zlar: xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, tijorat banklari, bank aktivlari, hisobot tizimi, moliyaviy barqarorlik, risklarni boshqarish, raqamli tahlil, AT «Kapitalbank».

Abstract

This article explores the current state of the implementation of International Financial Reporting Standards (IFRS) in Uzbekistan and the issues related to their improvement, providing scientifically grounded recommendations. The research analyzes the application of IFRS requirements in commercial banks, the evaluation of assets and liabilities, the assurance of transparency, and the mechanisms of digitalization of accounting, all based on modern financial analysis methods. Using the example of “Kapitalbank” JSCB, the study examines the effectiveness of financial reporting in compliance with international standards at both the central office and branch levels, identifying factors that influence financial stability and profitability indicators

Keywords: International Financial Reporting Standards (IFRS), commercial banks, bank assets, reporting system, financial stability, risk management, digital analysis, JSCB “Kapitalbank”

Kirish

Buxgalteriya hisoboti - bu hisobot davri uchun bank faoliyatining natijalari, tegishli tarzda tasdiqlangan shakllarda taqdim etiladigan, o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar to'plami.

Moliyaviy hisobotlar bank faoliyatining samaradorligi, barqarorligi va moliyaviy holatini baholashda muhim vosita hisoblanadi. Ular orqali bankning

aktivlari va passivlari, likvidlik darajasi, rentabellik, risk darajasi va boshqa ko‘plab moliyaviy ko‘rsatkichlar aniq va tizimli tarzda tahlil qilinadi. Shu bois, banklarda moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri va samarali tahlil qilish jarayoni, shu jumladan tahlilni tashkil etish tartibi, zamonaviy talablar darajasida bo‘lishi lozim.

Moliyaviy hisobotlar bankning moliyaviy holatini, faoliyat natijalarini, risklarini va istiqboldagi imkoniyatlarini aniqlashda asosiy manba hisoblanadi. Ular orqali bank aktivlari va passivlarining tarkibi va sifatini baholash, likvidlik darajasini aniqlash, rentabellik va samaradorlik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish, kapital yetarliligi va risklarni boshqarish darajasini o‘lchash, bankning umumiy moliyaviy barqarorligini baholash hamda moliyaviy boshqaruv va strategik qarorlar qabul qilish uchun asos yaratish mumkin. Shu bois, moliyaviy hisobotlarning to‘g‘ri, tezkor va chuqur tahlil qilinishi bankning barqaror rivojlanishi uchun muhim shartdir.

Moliyaviy hisobotga qo‘yiladigan talablardan biri - uni rasmiylashtirish hisoblanadi. Bu moliyaviy hisobotni tuzish ham mulklar, majburiyatlar va xo‘jalik muomalalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish kabi, o‘zbek tilida va milliy valyuta - so‘mda amalga oshirilishini bildiradi. Moliyaviy hisobot bankning rahbari va bosh buxgalteri tomonidan imzolanib, muhr bilan tasdiqlanadi. Ichki buxgalteriya hisobotlari korxonaning tijorat sirlari oshkor qilinmasligi uchun e‘lon qilinmaydi.

Mavzuning dolzarbligi

Moliyaviy hisobot buxgalteriya hisobi tizimining yakuniy natijasi sifatida moliyaviy hisobot subyekting moliyaviy holatini va uning moliyaviy ahvolidagi o‘zgarishlarni ko‘rsatadi. Bunday axborotlardan ko‘plab iste‘molchilar quyidagi maqsadlar bilan foydalanadi:

- a) kreditlar berish bo‘yicha qarorlar qabul qilish va investitsion qarorlar qabul qilish uchun;
- b) subyekting kelgusidagi pul oqimlarini baholash;
- c) subyekting resurslari, majburiyatlari va ulardagi o‘zgarishlar to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish

Moliyaviy hisobotga tushuntirishlarning asosiy maqsadi bankning moliyaviy ahvoli va o‘rnini to‘g‘risida to‘liqroq axborotlar olish uchun hisobot shakllarining mazmunini to‘ldirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun tadqiqotda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Nazariy asoslarni o‘rganish – moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (MHXS/IFRS)ning mazmuni, mohiyati va nazariy asoslarini, shuningdek, Basel talablarida belgilangan bank hisoboti va shaffoflikka oid metodologiyalarni tahlil qilish.

- Ilmiy va empirik adabiyotlarni o‘rganish – mahalliy va xorijiy tajribalar asosida MHXSni joriy etish, ularning milliy standartlardan farqli jihatlari va amaliy samaradorligini baholash bo‘yicha ilmiy qarashlarni umumlashtirish.

• “Kapitalbank” ATB misolida amaliyotni tahlil qilish – 2020–2024 yillar davomida bankda moliyaviy hisobotlarning tarkibi, tuzilmasi va tahlili shuningdek, ularning bankning moliyaviy barqarorligi hamda investitsion jozibadorligiga ta’sirini o‘rganish.

• Muammolarni aniqlash – MHXSni joriy qilish jarayonidagi cheklovlar, milliy standartlar bilan uyg‘unlashtirishdagi kamchiliklar, amaliyotda uchrayotgan metodik muammolar va axborot tizimlari bilan bog‘liq to‘siqlarni aniqlash.

• Taqqoslama tahlil – O‘zbekiston tijorat banklari, xususan, “Kapitalbank” ATB amaliyoti bilan solishtirish.

Adabiyotlar sharhi

Moliyaviy hisobotlarning tahlilini takomillashtirish va bank nazoratining xalqaro yondashuvlari nuqtayi nazaridan, aktivlarning qadrsizlanishini baholashda xalqaro moliya institutlari tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalar alohida ahamiyat kasb etadi. Basel qo‘mitasi (Bazel, Shveytsariya) ekspertlari ta’kidlaganidek, bank tizimida aktivlardan foydalanish samaradorligini baholashda kapital yetarliligi (CAR), likvidlik qamrov koeffitsienti (LCR) va aktivlarning risk darajasi (RWA) kabi ko‘rsatkichlarni integratsiyalashgan tarzda tahlil qilish zarur. Ushbu ko‘rsatkichlar bank balansidagi aktivlarning sifatini baholash, ehtimoliy moliyaviy barqarorlik xatarlarini kamaytirish va aktivlar qadrsizlanishini oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, Rose & Hudgins o‘zining “Bank Management and Financial Services” asarida qadrsizlanishni baholashda faqat an’anaviy moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan cheklanmaslik lozimligini qayd etadi. Ularning tadqiqotlarida quyidagilar alohida ta’kidlanadi. Aktivlarning bozor qiymati – moliyaviy hisobotlarda adolatli qiymatni aks ettirish va bozor sharoitlariga mos ravishda qadrsizlanishni aniqlash uchun zarur. Qayta baholash natijalari – aktivlar qiymatini yangilash orqali moliyaviy hisobotlarda ishonchlilikni oshiradi. Vaqt omili (duration analysis) – aktivlar va majburiyatlar muddatlarini moslashtirish orqali qadrsizlanish ta’sirini o‘lchash va foiz stavkalari riskini boshqarishga yordam beradi. Demak, MHXSning nazariy asoslari bilan uyg‘un holda, Basel qo‘mitasi ko‘rsatkichlari va Rose & Hudgins yondashuvlari aktivlarning qadrsizlanishini baholashda kompleks yondashuvni shakllantiradi. Bu esa moliyaviy hisobotlarda aktivlarning real qiymatini ko‘rsatish, ularning risk darajasini aniqlash va investorlarga ishonchli axborot taqdim etishni ta’minlaydi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, MHXS nazariy asoslari quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi:

1. Moliyaviy hisobot elementlarining ta’riflari va tasnifi. Rose va Hudgins (2013), Mishkin (2021) kabi xorijiy mualliflar bank aktivlarini moliyaviy institutlar balansida aks etuvchi daromad keltiruvchi va yordamchi resurslar sifatida ta’riflaydi. Bu yondashuv aktivlarni daromadli (kreditlar, investitsiyalar) va daromadsiz (rezervlar, asosiy vositalar) guruhlariga ajratishni talab qiladi.

2. Aktivlarning qiymatini va samaradorligini baholash usullari. MHXS talablariga ko'ra, aktivlarning qadrsizlanishi muntazam ravishda qayta baholanadi va ularning qiymati bozor sharoitlariga moslashtiriladi. Mahalliy olimlardan X. Abdullayev (2020) va M. Yo'ldoshev (2022) bank kredit portfelining sifatini oshirish, risklarni diversifikatsiya qilish va aktivlarni to'g'ri baholashni muhim nazariy asos sifatida ta'kidlaydilar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bank tizimidagi barqarorlik va samaradorlikni ta'minlashda risklarni boshqarish siyosatining ahamiyati beqiyos. "Kapital Bank" ATB o'z faoliyatida moliyaviy, operatsiyaviy, likvidlik, valyuta, kredit va bozor risklarini to'liq identifikatsiya qilish, baholash, monitoring va kamaytirish bo'yicha mukammal tizimga ega. 2024 yil yakunlari bo'yicha bankda joriy qilingan risklarni boshqarish siyosati xalqaro standartlar, xususan, Bazel III talablari va IFRS 9 qoidalariga muvofiq shakllantirilgan.

Moliyaviy hisobotlarning tahlilini takomillashtirishni joriy etish, O'zbekiston bank tizimi uchun muhim vazifalardan biridir. Bu jarayon, moliyaviy hisobotlarning to'g'riligini ta'minlash va banklarning moliyaviy barqarorligini saqlashda, shuningdek, xalqaro amaliyotlarga muvofiqligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Aktivlarning qadirsizlanishini samarali boshqarish nafaqat hisob-kitoblar va moliyaviy hisobotlarni yaxshilash, balki bank sektorida risklarni boshqarish va kapital yetarliligini ta'minlashga ham xizmat qiladi. Ushbu jarayon, ayniqsa, "Kapitalbank" ATB misolida, moliyaviy tahlil, faoliyatni optimallashtirish va xalqaro standartlarga muvofiq moliyaviy hisobotlarni taqdim etish uchun qanday ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Tijorat banklarida aktivlarning qadirsizlanishini samarali boshqarish. Tijorat banklarida aktivlarning qadirsizlanishini samarali boshqarish — bu bank balansida mavjud bo'lgan aktivlarning qiymatini to'g'ri baholash, bozor sharoitlariga moslashtirish va zarur bo'lsa, buxgalteriya hisobotida ularni haqqoniy aks ettirish jarayonidir.

“Kapital Bank” ATBda moliyaviy holat va ko'rsatkichlar tahlili

№	Курсаткичлар номи	I-квартал	II-квартал	фарки
1	Кассадаги пул маблағлари	1218951368	742631429	-476319939
2	Бошка банкдан олинган пул маблағлари	4280147240	5154305307	874158067
3	Кимматли коғозлар	285937988	604303539	318365551
4	Кимматбаҳо металллар	7555	7555	0
5	Инвестициялар	1279776534	1408928018	1408928018
6	Репо битимлар	0	0	0

7	Кредит ва лизинг	37731347775	36691340205	-104000757
8	Асосий воситалар	2152411413	2142152901	1937490008
9	Бошка активлар	1147074751	1440262820	293188069
10	Жами активлар	55019996182	53299297835	-172069834

Bu jadval ko'rsatkichlaridan ko'rinib turibdiki kassadagi pul mablag'lari 1chi chorakda 1218951368 mlrd so'm bolsa, 2-chi chorakda 742631429mlrd so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 476319939mlrd so'mga kamaygan.

So'nggi yillarda O'zbekiston bank tizimida aktivlar ulushi ortib borish bilan birga, muammoli aktivlar ham salmoqli muammoga aylanib bormoqda. Masalan, 2022 yilda tijorat banklari aktivlari umumiy hajmi 450 trln so'mdan oshib, 2024 yilda 600 trln so'mdan oshdi. Bu o'sish, avvalo, banklar faol kredit siyosat yuritishi, yangi bozor segmentlariga chiqishga urinishi va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlari bilan bog'liq bo'lsa-da, o'sha paytda muammoli aktivlar, xususan muammoli kreditlar ham ko'paydi. Moliya bozorini rivojlantirish agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yil yakuniga kelib, umumiy muammoli kreditlar ulushi 5,6% dan 6,2% gacha ko'tarildi. Ba'zi banklarda esa bu ko'rsatkich 10% va undan ortiqni tashkil etdi. Bu esa tijorat banklari strategiyasini qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Bu dinamika faollikni ko'rsatadi, biroq yuqori faollik hamisha yuqori samaradorlikni anglatmaydi. Bankning muammoli aktivlari ham shunga mos ravishda o'sganini ko'rish mumkin.

Buning asosiy sabablari quyidagilar bilan bog'liq bo'lishi mumkin:

- Loyihalarni tanlashda etarli tahlilning olib borilmasligi;
- Qarz oluvchilarning to'lov qobiliyatidagi zaiflik;
- Kredit monitoringi jarayonidagi tizimsizliklar;
- Kadrlar salohiyati etarli emasligi;
- Iqtisodiy sharoitdagi tez-tez o'zgarishlar va tashqi xatarlar.

Bundan tashqari, aktivlarning tarkibiy tuzilishida ham strategik muvozanatning etishmasligi kuzatiladi. Bankning aktivlari ichida yuqori xavfli kreditlar, ya'ni hech qanday ta'minlovsiz yoki kam kafolatli loyihalarga berilgan kreditlar ulushi nisbatan yuqori. Bu esa bankning strategik boshqaruvida kredit siyosatini qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Bank kapitali va uni boshqarish tahlil qilish

Ko'rsatkichlar	2023 (mln so'm)	2024 (mln so'm)	Farqi(mln. So'm)
Ustav fond	46345513904	46345513904	0
Aksiyalar(oddiy)	4627483904	4627483904	0
Aksiyalar(imtiyozli)	7030000	7030000	0
Qo'shilgan kapital	696121	696121	0
Zahira kapital	1611338261	1659476975	48138714
Umumiy zahira fondi	1595250627	1644902518	49651891
Boshqa zahira fondi	16087634	14574457	-1513177
Taqsimlangan foyda	131245080	1704005280	39155200

Daromadlari 25% ga o'sgan, ya'ni bank kredit portfelidan ko'proq foyda ko'ra boshlagan. Foiz xarajatlari keskin 41.5% ga oshgan, bu bankning resurs bazasini saqlash uchun ko'proq xarajat qilganini ko'rsatadi. Sof foyda 856 mlrd so'm, 2022 yilga nisbatan 35.2% ko'p, bu yuqori samaradorlikni ko'rsatadi. Soliqdan oldingi foyda kamaygan, bu noto'g'ri xarajatlarni ortishi bilan bog'liq.

“Kapital Bank” ATBning so'nggi uch yillik faoliyatida foizli operatsiyalar asosiy daromad manbai bo'lib xizmat qilgan. Quyida keltirilgan tahlil bankning kredit faoliyati, resurslar qiymati va moliyaviy samaradorligi bo'yicha muhim xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Foiz daromadlari: 2024 yilda bank umumiy foiz daromadlaridan 7,2 trln so'm (samarali stavka usulida hisoblangan) va moliyaviy ijaralardan 36 mlrd so'm tushum olgan. Asosiy qismni mijozlarga berilgan kreditlar tashkil qilgan:

Bankning kredit portfeli kengayib, kredit faoliyati ortishi bilan foiz daromadlari 2 yilda qariyb 1,7 baravar oshgan. Investision qimmatli qog'ozlardan, boshqa banklar va naqd pullardan tushgan foizlar ham o'sish tendensiyasida bo'lgan.

Foiz xarajatlari: Bank mijozlarning depozitlari, tashqi qarzlar, banklararo moliyalashtirish va subordinasiyalangan majburiyatlar bo'yicha foiz to'lovlarini amalga oshiradi. Ular 2021 yilda 2,06 trln so'm, 2022 yilda 2,63 trln so'm, 2023 yilda esa 4,08 trln so'mni tashkil etdi. Bu juda katta o'sish bo'lib, bankning resurslar narxi keskin qimmatlashganini ko'rsatadi. Ayniqsa:

- Qarz mablag'lari bo'yicha to'lovlar: 2,23 trln so'm
- Klient mablag'lari bo'yicha to'lovlar: 1,14 trln so'm

Bu foiz xarajatlarning asosiy qismini tashkil etadi.

Bu ko'rsatkich bankning real foyda keltiradigan aktivlar portfeli rivojlanayotganini va xarajatlarga qaramasdan, yuqori samaradorlik saqlanayotganini ko'rsatadi.

“Kapital Bank” ATBda foyda va zarar to’g’risidagi hisobot tahlili.

Ko’rsatkichlar	2023 (mlrd so‘m)	2024(mlrd so‘m)	O‘zgarish (%)
Foiz daromadlari	8,491	6,810	+24.7%
Foiz xarajatlari	3,984	2,814	+41.5%
Sof foiz daromadi	4,507	3,996	+12.8%
Noto‘lovlar bo‘yicha rezervlar	1,500	1,306	+14.8%
Toza foiz daromadi (rezervdan so‘ng)	3,007	2,690	+11.8%
Noto‘g‘ri xarajatlar (adm., boshqa)	1,968	1,512	+30.2%
Soliqdan oldingi foyda	1,110	1,244	-10.8%
Sof foyda	856	633	+35.2%

Foiz daromadlari 25% ga o‘sgan, ya’ni bank kredit portfelidan ko‘proq foyda ko‘ra boshlagan. Foiz xarajatlari keskin 41.5% ga oshgan, bu bankning resurs bazasini saqlash uchun ko‘proq xarajat qilganini ko‘rsatadi. Sof foyda 856 mlrd so‘m, 2024 yilga nisbatan 35.2% ko‘p, bu yuqori samaradorlikni ko‘rsatadi. Soliqdan oldingi foyda kamaygan, bu noto‘g‘ri xarajatlar ortishi bilan bog‘liq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kapital Bank moliyaviy hisobotlari O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki talablariga muvofiq shakllantiriladi hamda bank faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha to‘liq va tizimli axborotni aks ettiradi. Har chorakda e‘lon qilinadigan moliyaviy hisobotlar bankning aktivlari, majburiyatlari, sof foydasi, daromad va xarajatlar tarkibi kabi asosiy ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi. Bankning rasmiy saytida mavjud bo‘lgan hisobotlardan ko‘rish mumkinki, so‘nggi yillarda Kapital Bankning sof foydasi barqaror o‘sib bormoqda, kredit portfeli hajmi esa izchil kengaymoqda. Bank faoliyati haqida ochiq va tizimli hisobot berilishi investorlar, mijozlar va regulyatorlar uchun muhim axborot manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Moliyaviy ko‘rsatkichlar tahlili Kapital Bank faoliyatining samaradorligi, barqarorligi va rivojlanish sur‘atlarini baholashda muhim rol o‘ynaydi. Bankning aktivlari hajmi, majburiyatlari, sof foydasi va daromadlari kabi asosiy ko‘rsatkichlar muntazam ravishda kuzatiladi. Ushbu ko‘rsatkichlar bankning moliyaviy holatini umumiy tarzda aks ettiradi va vaqt o‘tishi bilan ularning o‘zgarishi moliyaviy strategiyaning samaradorligini ko‘rsatadi.

Banklar faoliyatini samarali tashkil etishda ijtimoiy javobgarlik tamoyillari ham muhim ahamiyatga ega. Jumladan, kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirish, ayollar tadbirkorligi, yoshlar startup loyihalari, ekologik toza texnologiyalarga yo‘naltirilgan kreditlar va jamiyatda moliyaviy savodxonlikni oshirish bo‘yicha ijtimoiy dasturlarni

faol ilgari surish, bank faoliyatini faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi institut darajasiga ko'taradi. Ayniqsa, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish, aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, mas'uliyatli moliyalashtirish siyosatini olib borish orqali banklarning jamiyatdagi ijobiy obro'si va ijtimoiy rolini kuchaytirish mumkin.

1. Tijorat banklarida moliyaviy hisobot tuzilmasi va boshqaruv shakllari. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, amaldagi amaliyotda bank hisobotlari ko'proq iqtisodiy belgilarga — balans aktivlari, investitsiyalar, asosiy vositalar va boshqa ko'rsatkichlar kesimida shakllantirilmogda. Biroq hisobotlarni xalqaro talablarga muvofiq ravishda risk markazlari va likvidlik darajalari bo'yicha chuqur tahlil qilish yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Bu esa MHXS doirasida talab etiladigan shaffoflikni ta'minlashga to'sqinlik qiladi.

2. Byudjetlashtirish va KPI tizimlarining samaradorligi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, moliyaviy hisobotlarni yuritishda KPI ko'rsatkichlari (ROA, ROE, NIM, aktivlar aylanish tezligi) va byudjetlashtirish tizimini uyg'unlashtirish yuqori natijalar beradi. Xalqaro tajribaga (Basel Committee, 2023; Khadivar, 2024) muvofiq, byudjetlashtirish resurslardan foydalanishni nazorat qilish imkonini bersa, KPI tizimi hisobotlarning samaradorlik va rentabellik darajasini muntazam o'lchashga xizmat qiladi. Ammo bu yondashuv O'zbekiston bank amaliyotida hali keng qo'llanilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Q.H.Berdiyev. Hususiy Kapitalning buxgalteriya hisobi va auditini takomillashtirish masalalari / Monografiya. Qarshi. "Intellekt" nashriyoti, 2023.-146 bet.
2. Ahmed, R. (2021). Risk Analysis in Commercial Banking. Journal of Financial Auditing, 27(4), pp. 120–135.
3. Kyiu, A. va Tawiah, V. (2025). IFRS 9 implementation and bank risk. Accounting Forum, 49(1), 234-258.
4. Bley, J., Saad, M. va Samet, A. (2019). Auditor choice and bank risk taking. International Review of Financial Analysis, 61, 37-52.
5. Hoelscher, J., Reed, B.J. va Sierra, G.E. (2019). The effect of insured liabilities on the demand for external audits: The case of privately-held United States banks. J. of Corporate Accounting & Finance, 30(3), 8-19.
6. Buxgalteriya hisobi: Darslik / A.A. Karimov, J.E. Kurbanbayev, S.A. Jumanazarov; — T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. 624 b.
7. Karaliyev T.M., Qurbonov R.B., Rustamov M.S. Banklarda buxgalteriya hisobi (Matn|: o'quv qo'llanma / T.M. Karaliyev, R.B. Qurbonov, M.S. Rustamov. - Toshkent: «ZEBO PRINT», 2021. - 344 b.
8. Z.A.Umarov. Banklarda buxgalteriya hisobi (darslik). --T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», nashriyoti 2021, 612 b.